

**HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARDA VATANPARVARLIK
RUHINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI****Alijonov Bahtiyor Xoshimovich***Farg'ona davlat universiteti**harbiy ta'lim fakulteti katta o'qituvchisi***O'ktamov Sohibjon Erkinjon o'g'li***Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti**2-bosqich 24.126 guruh kursanti*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada harbiy ta'lim muassasalarida talabalarda vatanparvarlik ruhini shakllantirishning pedagogik asoslari tahlil qilingan. Unda yoshlarning Vatanga sadoqat, milliy g'urur, fuqarolik mas'uliyati va burch hissini rivojlantirishda ta'lim-tarbiya jarayonining o'rni yoritilgan. Shuningdek, harbiy ta'lim tizimida pedagogik va psixologik yondashuvlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, innovatsion metodlar hamda interfaol o'qitish shakllarining ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarida harbiy talabalarda vatanparvarlik ruhini mustahkamlashning samarali pedagogik shart-sharoitlari aniqlangan hamda ularning shaxsiy rivojlanishiga ta'siri asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *vatanparvarlik, harbiy ta'lim, tarbiya, pedagogik asoslar, milliy g'urur, fuqarolik mas'uliyati, ma'naviy qadriyatlar, harbiy tarbiya, shaxs kamoloti.*

**PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF CULTIVATING PATRIOTISM IN
STUDENTS AT MILITARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS**

Abstract: *This article analyzes the pedagogical foundations for cultivating patriotism among students in military educational institutions. It highlights the role of the educational process in developing young people's loyalty to the Motherland, national pride, civic responsibility, and sense of duty. The importance of pedagogical and psychological approaches, spiritual and educational activities, innovative methods, and interactive forms of instruction in the military education system is also explored. The research findings identify effective pedagogical conditions for strengthening patriotic spirit in military students and substantiate their impact on personal development.*

Keywords: *patriotism, military education, upbringing, pedagogical foundations, national pride, civic responsibility, spiritual values, military training, personal growth.*

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ
ПАТРИОТИЧЕСКОГО ДУХА У ОБУЧАЮЩИХСЯ В ВОЕННЫХ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ**

Аннотация: *В данной статье анализируются педагогические основы формирования патриотического духа у студентов военных учебных заведений. В ней освещается роль образовательно-воспитательного процесса в развитии у молодежи чувства преданности Родине, национальной гордости, гражданской*

ответственности и долга. Также раскрывается значение педагогических и психологических подходов, духовно-просветительских мероприятий, инновационных методов и интерактивных форм обучения в системе военного образования. В результате исследования определены эффективные педагогические условия укрепления патриотического духа у курсантов военных учебных заведений и обосновано их влияние на личностное развитие.

Ключевые слова: патриотизм, военное образование, воспитание, педагогические основы, национальная гордость, гражданская ответственность, духовные ценности, военное воспитание, личностное развитие.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida yosh avlodni milliy qadriyatlarga sodiq, Vatan ravnaqi uchun mas'uliyatli va fidoyi etib tarbiyalash masalasi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, harbiy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalar — mamlakat xavfsizligi, tinchligi va barqarorligini ta'minlaydigan kelajak ofitserlar sifatida yuksak vatanparvarlik ruhida kamol topishlari zarur. Shu boisdan ularning harbiy bilimlarni egallash jarayonida nafaqat jismoniy va kasbiy tayyorgarligi, balki ma'naviy-axloqiy, ruhiy va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar muhim o'rin tutadi.

Vatanparvarlik – bu nafaqat his-tuyg'u, balki jamiyat taraqqiyoti, davlat suvereniteti va milliy g'ururni himoya qilishga yo'naltirilgan ongli faoliyatdir. Shu ma'noda, harbiy ta'lim tizimida vatanparvarlik tarbiyasi talabalarning shaxsiy kamolotini, jamoaviy mas'uliyatini, sadoqat va fidoyilik fazilatlarini shakllantirishning eng muhim omili sanaladi.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarda vatanparvarlik ruhini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. “Yangi O'zbekiston — yangi avlod” tamoyili asosida harbiy ta'lim tizimini takomillashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, harbiy xizmatga bo'lgan hurmat va g'urur hissini kuchaytirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, harbiy ta'lim muassasalarida talabalarda vatanparvarlik ruhini shakllantirishning pedagogik asoslarini ilmiy jihatdan o'rganish zamonaviy pedagogika fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Vatanparvarlik tarbiyasi masalasi nafaqat pedagogika, balki psixologiya, sotsiologiya, falsafa va siyosatshunoslik fanlari kesishgan nuqtada o'rganiladigan ko'p qirrali ilmiy yo'nalishdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, harbiy ta'lim tizimida vatanparvarlik ruhini shakllantirish jarayoni shaxsning ma'naviy-axloqiy kamoloti, milliy g'ururi va fuqarolik burchini anglash bilan chambarchas bog'liqdir.

Mazkur yo'nalishda o'zbek olimlaridan A. Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq”, A. Qodiriy, A. Fitrat va A. Navoiylarning asarlarida yosh avlodni milliy g'oya, vatanparvarlik va insoniylik ruhida tarbiyalashning falsafiy asoslari yoritilgan. Mustaqillik davrida esa A. Abduqodirov, N. Sayidahmedov, M. Ochilov, Sh. To'xtayev, O. Hasanboyeva kabi olimlar yoshlarni ma'naviy-axloqiy yetuklik, vatanparvarlik va fuqarolik mas'uliyatiga yo'naltirishning pedagogik mexanizmlarini chuqur tadqiq etganlar.

Jahon tajribasiga nazar tashlasak, K. Rogers, J. Dewey, A. Maslow, D. Kolb, R. Peters singari g'arb olimlari ta'lim jarayonida shaxsning ijtimoiy faolligi, motivatsiyasi va fuqarolik

ongini shakllantirishda interfaol metodlarning ahamiyatini asoslab berganlar. Harbiy-pedagogik sohada esa rus olimlaridan A. Makarenko va V. Suhomlinskiylarning qarashlari harbiy-intizom, jamoaviylik va mas'uliyat tarbiyasida muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik tahlil metodi – harbiy ta'lim jarayonidagi vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni va shakllarini ilmiy tahlil qilishda. Taqqoslash va umumlashtirish metodi – mahalliy va xorijiy tajribalarni solishtirish, ularning samarali jihatlarini aniqlashda. Psixologik kuzatuv va so'rovnoma usuli – talabalar o'rtasida vatanparvarlik ruhining shakllanish darajasini o'rganishda.

Tajriba-sinov metodi – pedagogik sharoit va vositalarning samaradorligini amaliy jihatdan tekshirishda qo'llanildi. Metodologik asos sifatida O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Yoshlar siyosati to'g'risida"gi Qonuni, Harbiy doktrina, hamda Prezident Sh.M. Mirziyoyevning yoshlarda vatanparvarlik ruhini yuksaltirish, harbiy xizmatga bo'lgan hurmatni oshirishga oid nutqlari ham tadqiqotning nazariy tayanchini tashkil etadi.

MUHOKAMA

Harbiy ta'lim tizimida vatanparvarlik tarbiyasi jarayonini samarali tashkil etish, eng avvalo, ta'lim oluvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashi, kasbiy tayyorgarligi va ijtimoiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi. O'tkazilgan kuzatuvlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, talabalarda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish faqat dars jarayonlari bilangina cheklanmasligi kerak, balki harbiy-ma'naviy muhit, ijtimoiy faoliyat, jamoaviy hamkorlik va namunali rahbarlarning shaxsiy namunasi orqali ham mustahkanlanadi.

Harbiy ta'lim muassasalarida vatanparvarlik tarbiyasini yo'lga qo'yishda pedagogik jarayonning tizimliliigi va izchilligi muhim ahamiyatga ega. Ta'lim-tarbiya jarayoni shunday tashkil etilishi kerakki, u talabalarda nafaqat harbiy bilim va ko'nikmalarni, balki Vatanga muhabbat, sadoqat, fidoyilik, jamoaga hurmat, burch va mas'uliyat tuyg'ularini uyg'otsin.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, ko'plab harbiy ta'lim muassasalarida talabalarning vatanparvarlik ruhini shakllantirishda quyidagi omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega:

Pedagog shaxsining namunasi – o'qituvchining shaxsiy fazilatlari, dunyoqarashi va muloqot madaniyati talabalar uchun ibrat maktabi vazifasini bajaradi;

Milliy qadriyatlar asosida o'qitish – xalq urf-odatlarini, tarixiy qahramonlar jasorati, milliy g'urur va g'oya talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytiradi;

Innovatsion pedagogik texnologiyalar – interfaol metodlar, munozara, harbiy-psixologik o'yinlar, rol o'ynash texnologiyalari orqali talabalar faol ishtirok etuvchi subyektga aylanadi;

Amaliy tajribalar va harbiy mashg'ulotlar – nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash talabalarda mas'uliyat, intizom va o'z kuchiga ishonchni oshiradi.

Shuningdek, muhokama davomida aniqlanishicha, ayrim hollarda vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etishda umumiy yondashuvdan foydalanish, individual xususiyatlarni e'tiborga olmaslik yoki faqat nazariy bilim bilan cheklanish jarayon samaradorligini pasaytiradi. Shu bois, har bir talabaning shaxsiy motivatsiyasiga, qiziqishiga va ijtimoiy faoliyatiga mos yondashuv zarur.

Natijada, harbiy ta'lim tizimida vatanparvarlik ruhini shakllantirishning muvaffaqiyati pedagoglarning kasbiy mahorati, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llay olish darajasi, ta'lim muassasasidagi ma'naviy muhit va ijtimoiy sheriklik darajasi bilan chambarchas bog'liqligi aniqlangan.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, harbiy ta'lim muassasalarida talabalarda vatanparvarlik ruhini shakllantirish tizimli, maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni talab etadi. Pedagogik, psixologik va ma'naviy-ma'rifiy omillar o'zaro uzviy bog'liq holda amalga oshirilgandagina, ta'lim oluvchilarda yuksak vatanparvarlik tuyg'ulari shakllanadi

Vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni ta'lim jarayoniga uzviy kiritilganda, talabalarning milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotiraga hurmat, Vatanga sadoqat va mas'uliyat hissi kuchaygani kuzatildi.

Interfaol o'qitish metodlari (munozara, harbiy-psixologik o'yinlar, loyiha ishlari) talabalarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda samarali vosita bo'ldi.

Talabalarning shaxsiy o'ziga ishonchi, ijtimoiy faolligi, jamoaviylik ruhida harakat qilish ko'nikmalari oshdi.

Harbiy xizmatga bo'lgan ijobiy munosabat, fidoyilik va jasorat sifatlari yanada mustahkamlandi.

Milliy g'urur, tarixiy meros va xalq qahramonlari jasoratiga hurmat bilan qarash talabalarning ma'naviy dunyosini boyitdi.

Harbiy ta'lim tizimida o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, sport va madaniy loyihalar ularning Vatanga sadoqatini kuchaytirdi.

Shuningdek, tajriba-sinov jarayonlari natijasida aniqlanishicha, vatanparvarlik tarbiyasi samaradorligini oshirish uchun quyidagi shart-sharoitlar muhim:

- harbiy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy muhitni mustahkamlash;
- pedagoglarning kasbiy va ma'naviy tayyorgarligini doimiy oshirib borish;
- interfaol va innovatsion metodlarni qo'llash orqali talabalarning faol ishtirokini ta'minlash;
- ta'lim va tarbiya jarayonida milliy g'oya va qadriyatlarni markazga qo'yish.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari vatanparvarlik ruhini shakllantirish harbiy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligini, u shaxs kamoloti va kasbiy yetuklikning asosi sifatida qaralishini tasdiqlaydi.

XULOSA

Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimini milliy va ma'naviy qadriyatlarga tayangan holda rivojlantirish jarayonida yoshlarni, ayniqsa, harbiy ta'lim muassasalari talabalari orasida vatanparvarlik ruhini yuksaltirish muhim strategik vazifa sifatida qaralmoqda. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, vatanparvarlik ruhini shakllantirish — bu faqat ma'naviy targ'ibot emas, balki chuqur pedagogik tizim bo'lib, u talabaning shaxsiy dunyoqarashi, fuqarolik mas'uliyati, jamoaviy faoliyati va ruhiy tayyorgarligini shakllantirishga qaratilgan kompleks jarayondir.

Harbiy ta'lim muassasalarida vatanparvarlik tarbiyasining muvaffaqiyati, birinchi navbatda, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish, milliy g'urur va ma'naviy qadriyatlar asosida ta'lim berish, shuningdek, o'qituvchi shaxsining ibratli namunasi bilan chambarchas bog'liq. Harbiy jamoalarda sog'lom psixologik muhitni yaratish, talabalarni jamoaviylik va fidoyilik ruhida tarbiyalash, interfaol metodlar orqali ularni faol subyektga aylantirish vatanparvarlik tuyg'usini yanada mustahkamlaydi. Tadqiqot asosida aniqlanishicha, quyidagi omillar vatanparvarlik ruhini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega

- ta'lim jarayonida milliy g'oya, tarixiy xotira va qadriyatlarni keng yoritish;
- harbiy-ma'naviy muhitni boyitish hamda o'quvchilarni amaliy faoliyatga jalb etish;
- pedagoglarning kasbiy mahorati va ma'naviy yetukligini oshirish;
- harbiy jamoalarda o'zaro hurmat, birdamlik va mas'uliyat muhitini yaratish.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, harbiy ta'lim tizimida vatanparvarlik ruhini shakllantirish — bu nafaqat harbiy xizmatga tayyorlash, balki yuksak ma'naviyatli, mas'uliyatli va fidoyi yoshlarni voyaga yetkazishning asosiy garovidir. Bunday yondashuv “Yangi O'zbekiston” taraqqiyot strategiyasida belgilangan yuksak maqsadlar — milliy armiyani zamonaviy, vatanparvar va xalq xizmatiga sadoqatli kadrlar bilan ta'minlash yo'lida muhim qadamlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasining “Yoshlar siyosati to'g'risida”gi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2016.
4. O'zbekiston Respublikasi Harbiy doktrinasi. – Toshkent, 2018.
5. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi.” – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
6. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
7. Sayidahmedov N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2010.
8. Abduqodirov A.A. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslari. – Toshkent: TDPU, 2018.
9. Ochilov M. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti, 2019.
10. To'xtayev Sh. Harbiy ta'limda ma'naviy-axloqiy tarbiyaning o'rnini. – Toshkent: Ma'naviyat, 2021.
11. Hasanboyeva O. Ta'limda ma'naviyat va tarbiya integratsiyasi. – Toshkent: Fan, 2015.
12. Makarenko A.S. Pedagogik poema. – Moskva: Prosveshcheniye, 1989.
13. Suxomlinskiy V.A. Yurakni bolalarga beraman. – Toshkent: O'qituvchi, 1985.
14. Rogers C. Freedom to Learn. – Columbus: Merrill, 1983.
15. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916.
16. Maslow A. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 1954.
17. Kolb D. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1984.
18. Peters R.S. Ethics and Education. – London: Allen & Unwin, 1966.